

SHIRINMIYA (QIZILMIYA) O‘SIMLIGINING DORIVOR XUSUSYATLARI

Mo‘minboyev Diyorbek Jasurbek o‘g‘li

Samarqand davlat tibbiyot unversiteti

Farmatsiya fakulteti 2-kurs talabasi

e-mail: diyorbekmominboyev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada biz shirinmiya(qizilmiya) o‘simligining hayotiy shakli, o‘simlikning morfalogik tuzilishi, dorivor xususyati, inson hayotidagi ahamyati, undan oqilona foidalanish va undan damlama tayyorlash usullari haqida tanishib chiqamiz.

Tayanch iboralar: Shirinmiya(qizilmiya), dukkakdoshlar, glitsirrizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar, flavonoid

Ishning vazifasi: Biz bu o‘simlikning uchrash joylari, o‘zimizda bu o‘simlikdan qanday foidalishayotgani va qanday foidalansak moddiy foida ko‘rish haqida bat afsil gaplashamiz.

Material va uslublar:

Shirinmiya o‘simligi haqida



Shirinmiya, qizilmiya — dukkakdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik ildizpoyali begona o‘t. Poyasi tik, bo‘yi 20-50 sm ba’zan 40-150 sm, shoxlangan, ba’zan shoxlanmagan, tuklar bilan qoplangan. Ildizi o‘q ildiz, shoxlangan, 5-6m chuqurlikkacha boradi, ildizpoyalaridan yer ustki novdalari hosil bo‘ladi. Barglari toq patsimon, uznchoq. 8-20 sm. Gullari qiyshiq (zigomorf), ikki jinsli, binafsha rang, shoda to‘pgulga yig‘ilgan.. Mevasi 3-7

urug‘li dukkak. Urug‘i qattiq, mayda, silliq, mosh rang, 30—35° C haroratda ko‘karadi. Aprelning oxiridan iyungacha gullaydi. Avgustda pishadi. Asosan, Yevropa va O‘rta

Osiyoning hammarayonlarida, jumladan, Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

tarqalgan. Daryo yoqalarida, ariq va zovur bo‘ylarida, qumloq yerlarda, tog‘ yon bag‘irlarida, ba’zan 2500 m balandlikkacha bo‘lgan yerlarda, kam va o‘rta sho‘rlangan tuproqlarda ham o‘sadi. Amudaryo, Sirdaryo, Ural to‘qayzorlarida Shirinmiyaning katta maydonlarni egallagan o‘tloqzorlari uchraydi.

Dorivor xususiyati

Shirinmiya qadimdan qimmatbaho dorivor o‘simlik sifatida ma’lum. Uning ildizi



tarkibida gormonal faol glitsirrizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar, 30 ga yakin flavonoidlar va boshqalar bor. Tibbiyotda Shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig‘lanish. allergiya, zaharlanish, Addison kasshtligi, bod, belangi, bo‘g‘ma, sil, chipqon, ekzema va boshqalar kasalliklar davolanadi.

Shuningdek, oziqovqat, kimyo va kon metallurgiyasi sanoatida ham ishlataladi. Shirinmiyaning poyasi tarkibida ko‘p miqdorda oqsil, yog‘, qand, karotin, vitamin S va boshqalar borligidan qimmatbaho yemxashak hisoblanadi. Undan yaxshi pichan va silos tayyorlanadi. O‘zbekiston FA «Botanika» ilmiy ishlab chiqarish markazida Shirinmiyaning serhosil, qurgoqchilikka va tuproq sho‘rlanishiga chidamli shakllari yaratilgan; urug‘i va ildizpoyasidan ko‘paytirish usullari, afotexnikasi ishlab chiqilgan; yiliga 2-marta hosil olish mumkinligi isbotlangan.

Qizilmiya ildizlari

Qo‘llash usuli va do‘zalari

Damlama ko‘rinishida qo‘llaniladi. Damlama tayyorlash uchun 1 osh qoshiq (10g) maydalangan ildizlari sirlangan idishga solinadi, ustidan 1 stakan (200ml) issiq

qaynatilgan suv quyiladi va 15 min davomida qaynab turgan suv hammomida qizdiriladi, keyin 45 min davomida xona haroratida sovutiladi, dokadan o'tkaziladi, qolgan hom ashyo siqiladi va damlama hajmi qaynatilgan suv bilan 200 ml gacha yetkaziladi. Olingan damlamani salqin joyda 2 sutkagacha saqlash mumkin.

1 osh qosiqdan kuniga 3-4 marta ovqatdan keyin qabul qilinadi. Maydalangan shirinmiya ildizlari shifokor retseptisiz beriladi.

Qizilmiya ildizining siropi

Tarkibi:

faol modda: qizilmiya ildizi quyuq ekstrakti – 4 g; yordamchi moddalar: qandli sirop – 86 g, 90% li etil spirti – 10 g.

Ta'sir etuvchi modda(XPN):

qizilmiya ildizi quyuq ekstrakti

Preparatning savdo nomi:

Qizilmiya ildizining siropi

Farmakalogik guruhi:

Balg‘am ko‘chiruvchi vosita.

Dori shakli:

Sirop

Farmokoterapevtik guruhi:

Balg‘am ko‘chiruvchi vosita

Farmokinetikasi

Preparatning farmakokinetik tekshirishlari o'tkazilmagan, chunki preparat turli biologik faol moddalarini saqlaydi

Qo'llanilishi:

- Nafas yo'llarining balg‘am ajralishi qiyin bo'lgan, yo'tal bilan kechuvchi o'tkir va surunkali infektsion-yallig‘lanish kasalliklarini (bronxitlar, traxeobronxitlar, bronxopnevmoniya, bronxoektatik kasallik va boshqalar) davolashda qo'llanadi.

- Me'da va o'n ikki barmoq ichak asoratlanmagan yara kasalligida, yuqori sekretor faoliyatli surunkali gastritni majmuaviy davolash tarkibida qo'llanadi.



•Organizminning nospetsifik rezistentligini oshiruvchi vosita sifatida holsizlangan patsiyentlarda qo‘llanadi.

•Bolalarda kuzatiladigan allergik dermatit va dermatozlarni davolashda qo‘llanadi.

Qo‘llash usuli va do‘zalari:

Qizilmiya ildizi siropi kuniga 3 marta ichga qabul qilinadi: kattalarga – 1 qabul qilishda bir desert qoshiq $\frac{1}{2}$ stakan suvda buyuriladi; 12 yoshdan kattalarga – 1 qabul qilishda 1 choy qoshiq $\frac{1}{4}$ stakan suvda buyuriladi; 2 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarga bir qabul qilishda $\frac{1}{2}$ choy qoshiq $\frac{1}{4}$ stakan suvda buyuriladi; 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarga – 1-2 tomchidan 1 desert qoshiq suvda qabul qilinadi.

Davolash kursi 7-10 kunni tashkil etadi.

Preparatni bundan uzoqroq vaqt davomida qo‘llash tavsiya qilinmaydi.

Qizilmiya eksporti

Respublikamizdan shirinmiya xom-ashyosi AQSH, Buyuk Biritaniya, Germaniya, Yaponiya, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarga eksport qilinadi. Takidlash joizki, bu o‘simlik tuproq sharoitiga talabchan emas. Yer ostki suvlari yaqin qayta sho‘rlangan qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqib qolgan maydonlarga yetishtirilib yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish bilan bir qatorda yerkarni meliorativ xolatini yaxshilash xususyati bilan shubxasuz axamyatlidir. Bu o‘simlik dorivor bo‘lgani uchun Vazirlar Maxkamasining 1995 – yil 7-dekabrda shirinmiya o‘simligi hom shyosiga bo‘lgan ichki va tashqi bozor talabarini qondirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida shirinmiya xom ashysini yetishtirishni ko‘paytirish, chora tadbirlari to‘g‘risidagi” 453-sonli maxsus karor xam qabul qilingan.

Xulosa:

Demak biz bu maqolamizda qizilmiya o‘simligining hayotiy shakillari va uchrash joylari bilan tanishtik. Qizilmiyani xalq tabobatida ishlatib, tarkibida inson salomatligi uchun juda kerakli bo‘lgan moddalarni iste’mol qilib, ko‘plab kasallikkarni davolashimiz va oldini olishimiz mumkin. Bularidan eng asosiysi yuqori nafas yo‘llari hisoblanadi. Faqat iste’mol qilish jarayonini qattiq nazoratga olishimiz, ya’ni

belgilangan miqdoridan ozgina ko‘proq iste’mol qilishimiz inson salomatligi uchun katta salbiy oqibatlarga olib kelishi, hatto zaharlashi mumkinligini inobatga olishimiz zarur. Biz O‘zbekistonda qizilmiya va shunga o‘shash o‘simgiliklarni ko‘paytirib, farmatsevtika sohasi uchun dorilarni ishlab chiqarishni takomillashtirib va uni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olsak, o‘ylaymanki biz o‘z maqsadimizga tomon to‘g‘ri yo‘lda ketayotgan hisoblanamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.*Majidov Abdurashid -O‘simgiliklar olami(botonika) 77 bet 2018-yil*
- 2.*Akromjon Yuldashev, Akbar Bahromov, O‘ktam Parotovich Paratov-O‘zbekiston tabiat.O‘simgiliklarAtlas 192 bet 2011-yil*
- 3.*Komiljon Tojiboyev -Flora Of The Western Tien Shan 344 bet 2015-yil*
- 4.*G.P.Yakovlev-Botonika(tibbiyot darsliklari) 879 bet 2018-yil*
- 5.*Sharifa Salimova – Giyohlar bilan tillashgan inson(O‘quv va metodik qo‘llanma) 120 bet 1998-yil*